

ABDULLA SHER IJODIDA TARJIMA

Sayyora Haqnazarova

katta o'qituvchi,

Farg'ona davlat universiteti

Annotasiya: *Ushbu maqolada Abdulla Sher ijodida tarjimachilikning o'rni hamda shoir tomonidan qilingan tarjimalar va ularning shoir ijodiga ta'siri haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *tarjima san'ati, adabiy muhit, davr, poetik mahorat, falsafiy mushohada, asar g'oyasi, o'ziga xoslik, badiiy tarjima*

Abdulla Sher o'z umrini samarali ijod bilan o'tkazmoqda. U o'zining she'r va dostonlari, dramatik va nasriy asarlari, yuksak badiiy tarjimalari bilan tanilgan ijodkorlardan biridir. Uning asarlari, asosan, zamonaviy ruhda yozilganligi, falsafiy mushohadalarga boyligi bilan ajralib turadi. U asarlarida kishilarning ma'naviy dunyosi, o'y- istaklari, intilishlarini o'ziga xos poetik obrazlar orqali mahorat bilan tasvirlab beradi. Ijodkor tomonidan nemis poeziyasining mashhur vakillaridan biri Haynrix Hayne asarlari yuksak mahorat bilan tarjima qilingan. Umrini nemis xalqining hayotini farovon qilish uchun kurashga tikkan Hayne o'z manfaatidan boshqa narsani o'ylamaydigan amaldorlarga yoqmas edi. Shuning uchun ham u 1830 yilda u Fransiyaga ketishga majbur bo'ldi. O'sha yilning iyulida sodir bo'lgan inqilobdan keyingi Parijdagi siyosiy va adabiy hayotda faol ishtirok etadi. Nafaqat nemislarning, balki butun insoniyatning baxtli yashashini istagan shoir bu erda o'ziga ko'plab xayrixohlar, hamfikrlar topdi va umrining oxiriga qadar qizg'in ijod qo'ynida yashadi.

Hayne she'rlarini Abdulla Sher tarjimasida o'qir ekanmiz, she'rlarni xuddi o'z ona tilimizda o'qigandek bo'lamiz va undagi nozik kechinmalardan ta'sirlanamiz:

Shoshma darg'a, shiddatli darg'a,

Bandargohga bir qaytay men-

Xush qol deyin suluv dildorga,

Ovropaga vido aytay men.

Haynening ijodiy faoliyati Germaniyada lirik poeziya gullagan davrga to'g'ri keldi. Hayne o'zining jo'shqin lirik she'rlari bilan nemis lirik poeziyasi ravnaqiga katta hissa qo'shdi. Uning poeziyasi nemis romantizimining eng yuqori cho'qqisi bo'ldi.

Jonim! Seni asrasin xudo

*Kun tig'idan, ayozdan doim
Va shafaqating uchun, iloyim
G'azabini ko'rmasin ravo.*

Ma'shuqaga etisha olmagan oshiqning sevgisi Hayne lirikasida bosh mavzu bo'lib qoldi. Sevgi iztiroblari shoirning she'rlarida kuyib-pishib kuylanadi. Hayne lirikasida sevgi mavzusini qandaydir ilohiy bir hissiyot bilan bog'laydi va Abdulla Sher tomonidan tarjima qilingan she'rlarda ham ana shu ilohiy tuyg'u o'z o'rnini yo'qotmagan:

*So'z ber, jonim, endi men-o'zga:
Ishongayman birgina so'zga!
Men ko'ksinga bosh qo'yganim vaqt
Ishonaman borligiga baxt;
Ishongayaman sen bilan xurram
Yashashimga u dunyoda ham*

Hayne tomonidan yaratilgan asarlar katta zavq va ishtiyoq bilan kutib olingan va uning har bir asarini sevib mutolaa qilganlar. Hayne mo''jizakor qalami tufayli, XIX asr voqeligini, ijtimoiy hayot yangiliklarini o'z mohiyatiga singdirgan ajoyib poetik asarlar yaratdi. Uning gohi nafis va hazin, gohi quvnoq va sokin, gohi jo'shqin va yorqin hislarga to'la she'rlari nemis poeziyasini yangi bosqichga ko'tardi. Abdulla Sher Haynening ana shu inson ko'zi ilg'amas nozik tuyg'ularini ich-ichidan his qila oldi va tarjimalarida shoirning iztiroblariyu, kechinmalarini kitobxonga yetkazib berdi :

*Ming yillarki, g'ujg'on yulduzlar
Yuksaklarda qotgancha turar,
Ishq sog'inchi yongan ko'z bilan
Bir-biriga to'ymay termular*

“Tarjimon tug'ma iste'dod egasi bo'lishi kerak. U kitobdagi eng muhim va eng yaxshi jihatni ko'rishi va ko'rsata bilish zarur”.

Darhaqiqat, Hayne aytganidek, tarjimon har bir tarjima qilayotgan asari g'oyasini tushuna olishi, unda shoirning asosiy maqsadini, kitobxonga nima demoqchiligini tushuntirib bera olishi zarur. Bir so'z bilan aytganda, tarjimon shu asar yaratilish jarayonida. bevosita ijodkor bilan birgalikda ijod qilganday bo'lishi muhim. Abdulla Sher Haynening qalb kechinmalari va tuyg'ularini yurakdan his qila oldi, tarjima jarayonida ham asarning asliyatini yo'qotmaslikka intildi.

Hayne lirikasida o'z hislarini qalamga ko'chiradi, fikrlarini hayotiy tafsillar bilan asoslashga intiladi, tabiiy lavhalarga hamohang bo'lgan vaziyatlarni ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Tabiatdagi narsa va hodisalarni jonlantirish orqali lirik qahramonning ruhiy holati ifoda etiladi:

Tengi yo'q yoz , jazirama yoz
Yuzginangda lovullar, jonon:
Tengi yo'q qish, qaqqshatqich ayoz
Qalbginangda bugun hukmron.

Adib tarjimalarida inson qalbining nozik tuyg'ulari ifodasi sezilib turadi, shu sababli undan bahramand bo'layotgan muxlislar nemis shoiri ijodiyoti bilan o'z qalblari o'rtasida yaqinlik sezadilar.

Seni har tun tushda ko'raman,
Tikilasan menga mehribon,
Quvonch yoshim tirqirab ko'zdan,
Yiqilaman poyingga komron.

Hayne o'zini romantizmning oxirgi shoiri va birinchi tanqidchisi deb atagan. Romantik kayfiyat uning asarlarida muhim o'rin egallagan. Uning poeziyasi romantik shirin xayollar va orzularga bo'lgan tanqidiy munosabat va prozaik detal, hamda tafsilotlar bilan to'ldiriladi.

Hayne poeziyasi inson yuragiga huzurbaxsh zavq beradi, bu zavq sururi yashash shavqini oshiradi va qalblarga orom bag'ishlaydi. Hayne she'rlari bundan buyon ham she'riyat shaydolari tillarida yangrayveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. "Mehr -go'zallikdan ustun" . Haynrix Hayne ijodidan caralangan satrlar. Abdulla Sher tarjimasi.
2. "Sevgi iztiroblari" A. Akbarov . Toshkent. "Dono" nashriyoti,
3. "Yoshlik iztiroblari". Abdulla Sher tarjimasi, Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti, 1997 yil
4. Mamasoliev, R. (2020). BENEFITS OF INTRODUCING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 314-316).
5. Mamasoliev, R. A. (2022). ANALYSIS OF SYNONYMS FOR THE CONCEPT OF TEACHER IN GERMAN AND UZBEK. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 194-203.
6. Azizovna, U. B. (2022). The Actual State of the System for Developing the Media Culture of Foreign Language Teachers on the Basis of Interdisciplinary Cooperation. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(8), 49-52.
7. Azizovna, U. B. (2022). Scientific-Pedagogical Basis and Need for Development of Media Culture through Media Education. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(8), 5-7.

8. Umurzakova, B. (2020). SOME PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF INCREASING STUDENTS'MOTIVATION IN THE PROCESS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 237-239).
9. Sotvaldieva, H. M. (2021). Using proverbs as A lead-In activity in teaching english as A Foreign Language. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 159-163.
10. Haqnazarova, S. (2022). Translation And Literary Influence on The Work of Abdulla Sher. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 92-93.
11. Abdurahmonovna, S. K. (2021, June). The Expression Of Nationalism In The Work Of Abdullah Sher. In *Archive of Conferences* (pp. 90-92).
12. Haqnazarova, S. (2021). Abdullah Sher is a great translator. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 44-45.
13. Haqnazarova, S. (2021). ABDULLA SHER ASARLARIDA TARIXGA NAZAR. *Scientific progress*, 2(7), 1279-1281.
14. Sotvaldieva, H. M. (2020). ENGLISH PROVERBSAS A MEANS OF EXPRESSING PEOPLE'S WISDOM, SPIRIT AND NATIONAL MENTALITY. *Theoretical & Applied Science*, (2), 601-604.